



ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

7
2024



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

7-son (2024-yil, iyul)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2024, № 7

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qaratilgan qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi to'g'risida zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor
Mas'ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov To'lg'in Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)
Andriyenko Yelena Vasilyevna, pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Romm Tatyana Aleksandrovna, pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudova Miyassar, pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Tadrixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Durdiev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Chariyev Irgash To'rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ro'ziyeva Dilnaza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)
To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Nurulloyev Firuz No'monjonovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 7, 2024

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.
Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук
Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор
Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор
Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор
Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)
Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)
Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)
Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)
Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудова Музассар, доктор педагогических наук, профессор
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)
Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор
Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор
Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор
Дурдыев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор
Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор
Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор
Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор
Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор
Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор
Курбонова Гулиоз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор
Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент
Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)
Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент
Файзиёва Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	KORSHUBAYEVA Ra'no Xazratkulovna	Ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	7
2.	NURMATOV Azizbek Nuraliyevich	O'smirlarda ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on axborotlar masalasini ilmiy o'rganish tajribalari	12
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
3.	AMIRQULOVA Dilnoza Bahriddin qizi	Ta'lim jarayonida metakognitiv strategiyalarni qo'llashning samarali usullari	16
4.	BOZOROV Vahobiddin Nuriddinovich	Zamonaviy ta'limda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishning didaktik usullari	21
5.	GENJEMURATOVA Gul Khan Perdebaevna	Integrativ yondashuvlar sharoitida talabalarning kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish usullari va shakllari	25
6.	IGILIKOV Aybek Jarilqasinovich	Talabalarni zamonaviy dasturlar asosida o'qitish metodikasini shakllantirish	30
7.	KASIMOVA Xulkar Atabayevna	Subyektiv farovonlikni nogironligi bo'lgan talabalarda namoyon bo'lishi	35
8.	MAMAJANOV Raxmatilla Yakubjanovich	Innovatsion ta'lim muhitining asosi sifatida kichik maktab o'quvchilariga informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning o'quv-uslubiy ta'minoti	40
9.	IGILIKOV Aybek Jarilqasinovich	Oliy ta'lim muassasalari talabalarini zamonaviy dasturlar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli	44
10.	MAXAMMATOVA Ma'muraxon Jalilovna	Pedagogik jarayonni intensivlashtirish asosida o'quvchilarda tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari	49
11.	NASRULLAYEVA Fatima Azatovna	Dars mashg'ulotlarida o'quvchilarni nostandart topshiriqlar asosida baholash (texnologiya fani misolida)	53
12.	TURDIYEV Elmira Jurayevich, NURMAMATOV Romazan Abdirashid o'g'li	Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash	57
13.	NURUTDINOVA Feruza Muidinovna	Kasbiy kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida talabalar bilimni baholashning innovatsion usullari	61
14.	PARDAYEVA Sevara Abdunosir qizi	Pedagogning kasbiy kompetentligi zamonaviy ta'limning fenomini sifatida	65
15.	PULATOVA Muattar Kurakboyevna	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishning amaliy-funksional ahamiyati	72
16.	QARSHIYEVA Zulfiya Shukurovna	O'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishning zamonaviy modeli	77
17.	SAFAROV Feruz Saminjon o'g'li	Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash bosqichlarining nazariy tahlili	84
18.	SAFAROVA Nigora Nasillovna	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	87
19.	NIYOZOV Erkin Dilmurodovich, SAIDOV Olimjon Amon o'gli, SHUKUROV Hidoyat O'ktam o'g'li	Innovatsion usullardan foydalangan holda kimyo darslarini tashkil qilish va ularni qo'llash	92
20.	XAZRATOV Fazliddin Xikmatovich	Obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillari orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	96
21.	XUDOYNAZAROV Shokirjon Abdumalikovich	O'zbekiston respublikasi qurolli kuchlar tizimida malakali kadrlar tayyorlashning zarurati	100
22.	ЖАЛОЛОВА Моҳиғул Одилжон қизи	Оила ва никоҳ диапазонида ижтимоий роллар тақсимотини ўрганувчи психологик методикалар таҳлили	107

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 7

23.	ИММАКУЛОВ Расул Рахманович	Технология педагогического общения и использования афоризма в социуме	112
24.	КОБИЛОВА Феруза Толибовна, JUMAYEVA Dilnoz Turayevna	Педагогические психологические факторы развития языковых навыков учителей английского языка посредством общения	117
25.	МАТУРАЗОВА Зулфия Матиязовна	Этнических представление каракалпакской студенческой молодежи и особенности его психодиагностики	122
26.	МУСАЕВА Нодира Низомовна	Роль личностно-ориентированных технологий обучения в учебном процессе	127
27.	НАСЫРОВА Нигора Каримовна	Роль преподавателя физики в формировании характера и социальной компетентности студентов	132
28.	МУСАЕВА Нодира Низомовна	Роль усовершенствованной таксономии учебных целей в повышение качества обучения	136
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM			
29.	AZIZOVA Zulfizar Fazilovna	Ilk va maktabgacha yosh davrida bolalarning ijodiy rivojlanishi	141
30.	OTABOYEVA Xusniya Sharofiddin qizi	Boshlang'ich sinf o'quvchilari matematik tafakkurini sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali shakllantirish	147
31.	QO'CHQAROVA Shakarjon	Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matn asosiy vosita sifatida	151
32.	TOG'AYNAZAROV Sirojiddin Olimovich	Boshlang'ich sinflarda kombinatorika masalalarini yechish usullari	157
33.	ZIYODULLAYEVA Sarvinoz Shamsiddin qizi	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda liderlik sifatlarini shakllanishining ahamiyati	161
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH			
34.	ALIYEVA Shahlo Avazovna	Methods for teaching languages and the role of technology in education	165
35.	ASHURBAYEVA Ruqiya Qahhorovna	Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim	169
36.	BURANOVA Dilafruz Djamaldinovna	The role of information technologies in english language learning for medical students	174
37.	DADADJANOVA Feruza Muxammadyusupovna	Tibbiyot institutlari talabalariga chet tilini o'rgatish jarayonida diskursiv kompeteniyani rivojlantirish	180
38.	HAMRAYEVA Muhayyo Erkin qizi	Enhancing speaking skills in primary school education: a comprehensive examination of the modeling approach	185
39.	NURJANOVA Yulduz Shukirillayevna	Xalq og'zaki ijodini jadvalli topshiriqlar asosida o'rganish	189
40.	TOJIYEVA Matluba Mahmud qizi	Teaching and learning english through blended learning	193
41.	TURGUNBOEV Rustamjon Ikhomjon ugli	Modern methods of teaching listening and speaking skills	201
42.	USMANALIYEVA Gavhar Akbarali qizi	Ta'lim jarayonida talabalarda multilingualizmning psixologik xususiyatlari	205
43.	AJGURBAEVA Ruqia Kaxxorovna	Роль интеграции в написании эссе	209
44.	TUZIKENOVA Juldizay Amantayevna	O'quvchilar faol so'z boyligini oshirish yo'llari	214
45.	ФАЙЗУЛЛАЕВА Назолат Абдусатторовна	Формирование коммуникативной компетентности будущих офицеров в процессе обучения иностранному языку	219

UMUMTA'LIM MAKTEBLARIDA O'QUVCHILARGA O'QUV STRATEGIYALARINI
O'RGATISHNING AMALIY-FUNKSIONAL AHAMIYATI

*Pulatova Muattar Kurakboyevna,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch-doktoranti
Samarqand viloyati, O'zbekiston.
muattarkurakboyevna@gmail.com.*

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim shakllari miqyosiga kiruvchi o'quv strategiyalari, pedagoglarning o'quvchilarga sifatli bilim olishida ko'makchilik kompetensiyasi, o'quvchi o'z ustida mustaqil ishlay olish ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagoglarning roli, o'qituvchilar o'zlarida yangi yondashuvlarni shakllantirish va mavjud ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

***Kalit so'zlar:** Oson o'quv uslublari, strategik yondashuv, strategiya, o'quv strategiyasi, ta'lim oluvchi, kasbiy rivojlanish, pedagogik maslahat.*

ПРАКТИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБУЧЕНИЯ СТРАТЕГИИ
ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В УНИВЕРСАЛЬНЫХ ШКОЛАХ

В данной статье изложены идеи по вопросам образовательных стратегий, входящих в масштабы современных форм образования, компромисса педагогов в оказании помощи учащимся в получении качественного образования, роли педагогов в развитии навыков самостоятельной работы школьника, способности учителей формировать у себя новые подходы и развивать уже имеющиеся навыки.

***Ключевые слова:** Легкие методы обучения, стратегический подход, стратегия, стратегия обучения, обучаемый, профессиональное развитие, педагогическое консультирование.*

PRACTICAL-FUNCTIONAL SIGNIFICANCE OF TEACHING STUDY STRATEGIES TO
STUDENTS IN UNIVERSAL EDUCATION SCHOOLS

This article presents ideas on educational strategies included in the scope of modern forms of education, the compromise of teachers in helping students receive quality education, the role of teachers in developing the skills of independent work of a student, the ability of teachers to form new approaches and develop existing skills.

***Key words:** Easy learning methods, strategic approach, strategy, learning strategy, learner, professional development, pedagogical counseling.*

Kirish. Ta'lim oluvchi jamiyatda muvaffaqiyatga erishgan shaxs sifatida kamolga yetishi uchun o'z ehtiyojlari savfiga bilim olish, ko'nikmalarni mustahkamlash kabi harakatlarni turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirish lozim. O'quvchi ongida muntazam ravishda o'z ustida ishlash ko'nikmasini kundalik hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilinishida dastlabki turkuni pedagog o'z vaqtida bera olishi muhim ahamiyatga ega. Maktab o'qituvchilariga o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatishda quyidagi maqsadlarda yordam berishni nazarda tutadi: matnni o'qish va tushunish, loyihalar va yozma ishlarni bajarish, eslatmalar yozib olish, vaqtni boshqarish, tashkil eta olish, ma'lumotlarni o'rganish va eslab qolish, test topshirish, muammoni hal qilish, o'z-o'zini nazorat qilish.

Bugungi kunda maktablarda fan va texnologiyaning amaliy uyg'unlashtirilgan o'quv faoliyati zamonaviy ta'lim talablaridan biri sifatida barcha o'quvchilar bir xil tushuna olishi va tafakkurida ko'nikma hosil qila olishi uchun innovatsion o'quv strategiyalarini qo'llashni talab qilmoqda. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lmashligi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, har bir o'quvchining o'z ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratishni lozim topadi. Mazkur jarayon hamkorlik tamoyillari asosida tashkil qilingan o'quv faoliyati nafaqat tushuntirish, balki, ko'rsatish, savol bera olish, hayot bilan bog'lash, eng yuqori natijalar tahlili, fiziologik imkoniyatlar sarhisobi va boshqalarga asoslanadi.

Ta'lim olishning har qanday turida an'anaviy, innovatsion, masofaviy-onlayn yoki mustaqil ta'lim turlarida o'quvchilarda o'zlariga akademik maqsadni qo'ya olishlari va mazkur maqsadga yetaklovchi individual harakat trayektoriyasini yarata olish ko'nikmasini shakllantirish masalasi o'zining yangi yechim va takliflarini kutmoqda. Kutilgan natijaga erishish yo'lida o'zlarini yo'naltirishlari va o'z-o'zini rag'batlantirish ko'nikmasini shakllantirishlari ham nazarda tutiladi.

Tadqiqot obyekti va metodlar. O'quv strategiyalari o'quvchilar samarali o'rganish uchun foydalanadigan usullar hisoblanadi. O'quv strategiyasi akademik va akademik bo'lmagan sharoitlarda mazmunni yanada samarali o'zlashtirish yoki boshqa vazifalarni bajarish uchun ma'lum ko'nikmalarni tashkil qilish va ulardan foydalanishning individual usuli hamdir. O'quv strategiyalari o'qituvchilarga ta'lim oluvchilarga ma'lum tarkib yoki ko'nikmalarni emas, balki qanday o'rganishni o'rgatish imkonini beradi. Bu o'quvchilarning o'quv jarayonining faol ishtirokchilari bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Strategik yondashuvga asoslangan jarayonda o'quvchilar o'qituvchidan ma'lumot olmaydilar va baholashdan passiv foydalanadilar, chunki ular o'quv jarayonining barcha jihatlarini qanday hisobga olishni o'rganadilar. O'quv strategiyalaridan bunday faol foydalanish o'quvchilarga ko'nikmalarni rivojlantirishga, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga va o'rganish jarayonida motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Strategiyalardan foydalanish o'z-o'zini o'rganishga yordam beradi va o'quvchilarga o'zlarining ta'limlari uchun javobgarlikni o'z zimmlariga olishga yordam beradi. O'quv strategiyalaridan foydalanishdan maqsad - o'quvchining motivatsion yoki ruhiy holatiga hamda ularning yangi bilimlarni qanday tanlashi, egallashi, tashkil qilishi yoki birlashtirishiga ta'sir qilishdir.

Strategiyalar kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan faol, o'z-o'zini jalb qilish vositalaridir. Shuningdek, o'quvchilar tomonidan yangi ma'lumotlarni olish, saqlash, eslab qolish va ulardan foydalanish jarayonini yaxshilash uchun ishlatiladigan ko'plab ongli harakatlar hisoblanadi.

O'quv strategiyasi bo'yicha ko'rsatmalar o'quvchilarga qanday o'rganish lozimligi, muammolarni qanday hal etish usullari va muvaffaqiyatga erishish uchun o'rgangan ma'lumotlaridan qanday foydalanishni o'rgatish orqali o'qish jarayonini osonlashtiradigan tamoyillar, strategiyalar hisoblanadi. O'quv strategiyalari imtihondan o'tish uchun o'qish rejasini ishlab chiqishni o'rganish, ma'lumotlar mazmunini tushunishni nazorat qilib borish, o'quv materiallarini aniqlashtirish va natijalarni baholashni o'z ichiga oladi. O'quv strategiyalari quyidagicha bosqichli startegiyalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi:

- maqsadlarni belgilash;
- o'z-o'ziga o'rgatish;
- o'z-o'zini nazorat qilish;

O'quvchilar boshlang'ich sinflardagi ko'nikmalarni o'rganishdan ko'ra o'rta sinfdagi mazmunni o'rganishga o'tar ekan, ular darsliklardan ma'lumot o'qish, ma'ruza matnlari, o'z-o'zini boshqarish va yozma insholar, testlarda tushunishni ifodalash uchun ortib borayotgan talablarga duch kelishadi. Yuqori sinflarga o'tganlarida esa ular mavzuga emas, balki amaliyotga e'tibor berishni boshlaydilar. Ular vazifalar yoki muammolarni hal qilish uchun vaqt va kuch sarflash uchun ko'proq motivatsiyaga ega bo'lishi kutiladi. Strategik yondashuvning motivation aspektlari funksional jihatdan samarali natijalarga ega bo'lishda asqotishi nazarda tutiladi.

O'quv strategiyalari amaliyotda qo'llanganda o'quvchining olgan bilimi o'qituvchining bilimiga bog'liq bo'lib qolmasdan, o'z ustida mustaqil izlanishi va o'zi uchun maqbul va xoslangan strategiyalarga asoslanib yangi o'quv shakllarini ijod etishi mumkinligini ta'minlaydi.

O'quvchilar yaxshiroq kontseptual tushunchaga ega bo'lish uchun yangi g'oyalarni eski g'oyalar bilan bog'laydi deb taxmin qilingan, ammo shu asnosida metakognitsiyani yuqori tartibli jarayon sifatida tan olish edi.

M. C. Wittrock, va K.Alesandrini [11] o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishda ahamiyatli jihatlarni ko'rasatib bergan:

- a) xotira jarayonlari
- b) axborotni qayta ishlashga ta'sir qiluvchi motivatsion jarayonlarni namoyish etish
- d) nevrologik o'rganishda ishtirok etadigan miya funktsiyalari
- e) konstruktivizm (oldingi kognitiv qarashlarga qaraganda o'rganishni tushunishning yaxshiroq usuli sifatida).

Foydalanish maqsadiga qarab metakognitiv va kognitiv strategiyalar bir-biriga mos kelishi mumkin, masalan, savol berish mumkin kognitiv yoki metakognitiv strategiya sifatini strategiya foydalanish jarayoni va maqsadini aniqlashda bilish mumkin. Masalan, o'qish paytida o'z-o'zini so'roq qilish strategiyasidan bilim olish vositasi sifatida foydalanish mumkin (kognitiv) yoki o'qiganlarini kuzatish usuli sifatida (metakognitiv) ham foydalanish mumkin. Kognitiv va metakognitiv strategiyalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-biriga bog'liq bo'lganligi sababli, birini boshqasini tan olmasdan tekshirishga bo'lgan har qanday urinish etarli korinishni bermaydi.[9]

Kognitiv strategiyalarga o'quv maqsadlariga erishish uchun matnni tushunish kiradi. Metakognitiv strategiyalar kognitiv faoliyatdan oldin yoki keyingi tajribalar, agar o'quvchi o'qigan yoki tinglagan narsasini tushunolmaganligini tan olsa va keyin o'z fikrlash va o'rganish jarayonlarini va o'rganish maqsadlariga erishish uchun nimani o'zgartirish mumkinligi haqida o'ylab, vaziyatni to'g'irlashni tanlash jarayonida amalga

oshiriladi. Ushbu nazariy yo'nalishlar ta'lim sub'ektlarini ta'lim paradigmasi va yaqin murabbiylik munosabatlari asosida o'quvchi markazda, lekin bundan ham muhimi, tug'ma psixologik ehtiyojlarning (kompetentsiya, nazorat va agentlik(irsifat)) muhimligini ta'kidlash va o'rganishni osonlashtirishda ichki nuqtai nazardan kelib chiqishini nazarda tutadi. O'rganish uchun mas'uliyatni o'quvchiga yuklash va shu bilan birga, o'rganish irodasi bilan rag'batlantirish uchun qanchalik ko'p ishtirok etishi kerakligini tushuntiruvchi kontekst o'quvchilar nazoratining mavjud eng samarali ko'rinishi deyish mumkin. Ta'lim sub'ektlari orasidagi munosabatlar g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlash va o'quvchi uchun muhim bo'lgan sohalarida kompetentsiyani rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjudligini his etish amaliyotlari o'quv strategiyalari yordamida o'qitish ta'limning asosiy tamoyillaridan biriga aylanishi to'g'risidagi gipotezani asoslaydi.

Dars jarayonida pedagogning o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini diagnostik tahlil qila olishi juda muhim hisoblanadi. Pedagogning kasbiy rivojlanishi nuqtai nazaridan o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish masalasi o'zining yangi yechimlarini kutayotgan yo'nalish sifatida innovatsion takliflarni talab etmoqda. Strategiya so'zi inglizcha "strategy" - "uzoq muddatli yoki umumiy maqsadga erishish uchun mo'ljallangan harakatlar rejasini" ma'nosidan kelib chiqqan. O'quv strategiyalari - bu ta'lim oluvchining umumiy o'rganish qobiliyatlarini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan usullardir. O'quv strategiyalari g'oyalari, xotiralar, mantiqiy fikrlash, his-tuyg'ular kabi resurslardan foydalangan holda o'rganish mazmunini o'zlashtirish va eslab qolishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Samarali o'quv strategiyalari har xil turdagi o'quvchilarga xotira va diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilash, o'qish va yozish ko'nikmalarini sifatini oshirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. O'quv strategiyalarining yangi ko'rinishlari o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olishni rag'batlantirish, oson o'quv usulklarini o'rganish, kam vaqt mobaynida hajm va sifat jihatdan ko'lami katta ma'lumotlarni osonlik bilan o'zlashtirish usullarini o'zida kashf etish kabi komponentlarni o'zida jamlagan ko'rinishi o'quv strategiyalarining modern usuli sifatida baholanadi. O'quvchining ta'lim oluvchilar klassifikatsiyasining qaysi turiga mansubligiga qarab mahsus tamoyillar belgilanib, yangi strategik bosqichga kiriladi. Xoslangan o'quv strategiyalari ta'lim olishni osonlashtirish, yanada qiziqarli etib boyitish, yanada samarali natijalarga erishishda vosita bo'ladi.

Nazariya va amaliyotning o'zaro integratsiyasi ta'minlanmaganligi ko'plab o'quvchilarni fanga qiziqishini kamaytirishi mumkin. Ijodiy erkinlikka tayanilgan strategiyalar tasavvur imkoni va ijodiy yondashuvga asoslanadi, masalan, o'rganilgan ma'lumoti asosida shakllangan tasavvurini ayni paytning o'zida chizib yoki og'zaki mushohada qilib ko'rish imkoni bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Natijalar va tahlil. Bugungi globallashgan jamiyatda o'quv strategiyalarini tasniflashning ko'plab usullari mavjud. Strategiyalarni kognitiv, metakognitiv qobiliyatlarni o'rganishga asoslangan toifalarga bo'linishini ko'rish mumkin. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga asoslangan strategik yondashuvlarning aksariyati til o'rganish uchun moslashgan bo'lsa-da, ulardan barcha fanlarni o'qitishda foydalanish o'quv strategiyalarining murakkabligini tushunish uchun yaxshi asos yaratgan holda, funktsional ahamiyatni ochib berishga hismat qiladi. Darsdan oldin, dars vaqtida hamda darsdan so'nggi mashg'ulotlarni asoslaydigan ma'lum amaliyotlar trayektoriyasi jihatidan mazmunni bilishga qaratilgan amallarga asoslangan yondashuv quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Rejalashtirish strategik yondashuv - individual o'rganish uslubi yoki ijobiy o'rganish strategiyasi;

Eksperimental strategik yondashuv - yangi ma'lumotlarni tartibli tizimga aylantiradigan va uni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqadigan uslubiy, ammo moslashuvchan yondashuv;

Monitoring strategik yondashuvi - o'z-o'zini boshqarish va ma'lumotdan foydalanishga tanqidiy sezgirlik;

O'QISH JARAYONIDA AN'ANAVIY YONDASHUVFOYDASHUVCHI O'QITUVCHI	O'QISH JARAYONIDA O'QUV STRATEGIYALARIDAN FOYDALANUVCHI O'QITUVCHI
ma'lumot beruvchi baholovchi boshqaruvchi ogohlantiruvchi tanqid qiluvchi tinglovchi vaqtini rejalashtiruvchi	maslahatchi tahlilchi kuzatuvchi hamkor motivator suhbatdosh vaqt menejeri

1-jadval. O'quv strategiyalariga asoslangan va an'anaviy ta'limdagi o'qituvchi o'rtasidagi farqlar

Sinfda o'qituvchi o'quv strategiyalarini tanlash barcha o'quvchilar uchun muhim. O'quvchilar tomonidan strategiyalardan qanday foydalanilishini va o'qituvchilar tomonidan o'rgatilishi va qo'llab-quvvatlashi, ushbu o'quv strategiyasini guruhlashni yanada osonlashtiradi. Ushbu strategiyalarni ba'zida menejment ko'nikmalari va o'qishni tushunish singari tushunchalar bilan o'qituvchilar ochib beradi.

Bugungi kunda maktablarda fan va texnologiyaning amaliy uyg'unlashtirilgan o'quv faoliyati zamonaviy ta'lim talablaridan biri sifatida barcha o'quvchilar bir xil tushuna olishi va tafakkurida ko'nikma hosil qila olishi uchun innovatsion o'quv strategiyalarini qo'llashni talab qilmoqda. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lmashligi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, har bir o'quvchining o'z ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratishni lozim topadi. Hamkorlik tamoyillari asosida tashkil qilingan o'quv faoliyati nafaqat tushuntirish, balki, ko'rsatish, savol bera olishni rivojlantirish, hayot bilan bog'lash, eng yuqori natijalar tahlili, fiziologik imkoniyatlar sarhisobi va boshqalarga asoslanadi. Ta'lim olishning har qanday turida an'anaviy, innovatsion, masofaviy-onlayn yoki mustaqil ta'lim turlarida o'quvchilarda o'zlariga akademik maqsadni qo'ya olishlari va mazkur maqsadga yetaklovchi individual harakat trayektoriyasini yarata olish ko'nikmasini shakllantirish masalasi o'zining yangi yechim va takliflarini kutmoqda. Kutilgan natijaga erishish yo'lida o'zlarini yo'naltirishlari va o'z-o'zini rag'batlantirish ko'nikmasini shakllantirishlari ham nazarda tutiladi.

O'qitish strategiyalari o'qituvchining o'quvchilari samarali o'qishini qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaydigan texnika va usullar hisoblanib, o'qituvchi hozirgi bilim darajasiga, o'rganilayotgan kontseptsiyaga eng mos keladigan o'qitish strategiyasini tanlaydi. Sinfda mazkur texnologiyani joriy etishda ta'lim muassasalarida faol o'quv strategiyalari singari vositalardan samarali foydalanish hamda jonli o'quv hamkorlikni rivojlantirishi, o'qituvchilarga dars rejalarini tayyorlash va takomillashtirishga yordam berishi mumkin. Sinfda mazkur texnologiyadan foydalanish o'quvchilarni XI asr ko'nikmalarini o'rganishga tayyorlaydigan qimmatli vosita bo'lishi mumkin. Taqdimotlar, videolar, virtual amaliy darslar, robotlar va kengaytirilgan axborotdan foydalanish nafaqat sinfga qiziqishni uyg'otadi, balki, o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni yaxshilaydi va o'qituvchilarga ma'lumotlarni yetkazib berishga imkon beradigan samarali o'quv muhitiga erishishga yordam beradi. Bu tajriba va atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir orqali o'rganish muhimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, ushbu yondashuvga asoslangan o'quv vositalari mavhum va konkret o'rtasida ko'priklarni, o'quvchilarga mavzu bilan faol shug'ullanish va murakkab tushunchalarni chuqurroq tushunishga imkon beradi.

O'quvchilar har doim ham yangi o'quv uslubini afzal ko'rishmaydi. Butun sinfda hamma uchun ochiq bo'lgan o'quv vazifalariga oid yechimlarni yaratish qiyin bo'lishi mumkin. Ta'lim sohasida faoliyat olib boradigan tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, faol o'quv strategiyalaridan aralash holda foydalanish har bir o'quvchining o'quv natijalarini yaxshilashga yordam beradi va ularni chuqurroq tushunishga undaydi. Shunday qilib, o'qituvchi uchun eng yaxshi o'qitish usullari bu - o'quvchilarga tez o'rganishga va ko'proq narsani yodda saqlashga yordam beradigan o'quv strategiyalarining jamlanmasidir deyish mumkin.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, o'quvchilar turli xildagi xarakter-xususiyatlarga, psixologik jihatlarga ega bo'lishi sababli turlicha yondashuvni talab etishadi. Bu holat sinfdagi har bir o'quvchiga individual o'quv strategiyalarini talab qiladi. Darhaqiqat, sinfdagi o'quvchilar iqtidorli yoki o'ta iqtidorli bo'lishi mumkin. Bolalarning qaysi sohalarida yuqori ishlash qobiliyatlarini tahlil qilib, ularning intellektual, ijodiy, badiiy (tasviriy va ijro san'ati), yetakchilik imkoniyatlari yoki muayyan akademik sohalar (tabiiy, aniq, ijtimoiy tadqiqotlar) va odatlarga qarab samarali yondashuvlar belgilanadi. O'qituvchi doim kasbiy bilimni boyitish, ko'nikmalarni uyg'unlashtirish, amalga oshirish kabi yangi bilim va tajribalarga ochiq bo'lishi muhim. Samarali ta'lim atributlarini tushunishda har xil turdagi o'quvchilarga yordam beradigan strategiyalarni o'rganish, o'rgatish, ijod qilish, diagnozlash ko'nikmasini har bir o'qituvchining kasbiy komponentlariga kiritish muvafaqqiyatli ta'lim jarayonini kafolatlashi prognoz qilinmoqda. Jamiyatimizda barkamol insonni tarbiyalash jarayonida o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari va bilimlarini kengaytirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari, vositalari, usullari, metodlarini boyitishda o'quv strategiyalaridan foydalanish amaliyotini qo'llab-quvvatlash va tashkil etish maqsadga erishilgan ta'limning asoslaridan biri bo'la oladi.

Adabiyotlar:

1. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari. – T.: “NAVRO‘Z” 2019.
2. Ibragimov A.A. Pedagogik xodimlar kasbiy kompetentligini takomillashtirishga ilmiy-metodik hamrohlikning pedagogik-psixologik xususiyatlari // O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2017. – №1/5. (13.00.00; №15).

3. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013.
4. Musurmanov R. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini joriy etish mexanizmlari. - T.: “O'zPFITI”, 2013.
5. Argyris, C. and Schön, D. A., 1996. Organizational Learning: Vol. 2. Theory, Method, and Practice. Reading: Addison-Wesley.
6. Boekaerts M., Corno L. Self-regulation in the classroom: A perspective on assessment and intervention // Applied psychology. – 2005
7. Boekaerts M., Niemivirta M. Self-regulated learning: Finding a balance between learning goals and ego-protective goals // Handbook of self-regulation. – Academic Press, 2000.
8. Fleming, N. D., 2006. Teaching and learning styles VARK strategies. Christchurch: N.D.Fleming.
9. Livingston, J. A. (1997). *Metacognition: An Overview*. Available at: <http://gse.buffalo.edu/fas/shuell/CEP564/Metacog.htm>
10. Савинова Л.Ф. Современные модели повышения квалификации: опыт, проблемы, перспективы // Научные обеспечение системы повышения квалификации кадров. – Челябинск, 2013.
11. Wittrock, M. C., and Alesandrini, K. (1990). Generation of summaries and analogies and analytic and holistic abilities. *Am. Educ. Res. J.* 27, 489–502. doi:10.3102/00028312027003489